



TASDIQLAYMAN
O‘zmetkombinat” AJ
Boshqaruv raisi-bosh direktor
D.Axmedov
2025 –yil “___” _____

INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMI SIYOSATI IMT-S-02-2025

“O‘zmetkombinat” AJ keng turdagи yuqori sifatlар po‘latдан tayyorlanадиган navli prokat va sim, issiq prokatlangan po‘lat zoldirlar, metalldan tayyorlanадиган xalq iste’mol mollari, mis va uning qotishmasidan tayyorlanадиган listli prokat, ferroqotishmalar, bazalt asosida issiqlik o‘tkazmaydigan materiallar kabi mahsulotlar ishlab chiqaradиган O‘zbekistonдagi yetakchi qora metallurgiya korxonasi hisobланади.

“O‘zmetkombinat” AJ ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini, ishlab chiqarish samaradorligini, energiya tejamkorligini oshirish, atrof-muhitga texnogen ta’sirni kamaytirish va bartaraf etish bo‘yicha, ishlab chiqarish quvvatlarini barqaror rivojlantirish bo‘yicha rejaga asoslangan ishlarni amalga oshirish bilan birga barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqarish faoliyatida xodimlarning hayoti va sog‘lig‘ining ustuvorliklarini, ishlab chiqarishni samarali boshqarish va kombinatning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur element sifatida tan oladi.

Tasavvur (nigoh)

“O‘zmetkombinat” AJ iste’molchilarining talablarini yuqori darajada qondirishga yo‘naltirilgan, xodimlarni doimiy ravishda rivojlantirish, uning tashabbusi, motivatsiyasi va professionalligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan O‘zbekistonning raqobatbardosh metallurgiya korxonasıdir.

Missiya

“O‘zmetkombinat” AJ ichki va tashqi bozorlarda iste’molchilarining talablari va xohishlariga javob berадиган, samaradorlik bo‘yicha yetakchilik pozitsiyalariga erishgan, aksiyadorlar uchun yuqori qo‘silgan qiymat yaratган, savdo bozorlarini diversifikatsiyalash orqali kombinat imidjini mustahkamlaydigan yuqori sifatlari mahsulotlarning ishonchli yetkazib beruvchisi bo‘lishga va o‘z xodimlarining qulay ijtimoiy muhiti va hayot sifatini qo‘llab-quvvatlashga intiladi.

“O‘zmetkombinat” AJning IMT sohasidagi strategik maqsadlari quyidagilardan iborat:

Jarayon yondashuvi va tavakkalchilikka yo‘naltirilgan fikrлash asosida xalqaro standartlar talablariga muvofiq integratsiyalashgan menejment tizimini joriy etish, qo‘llab-quvvatlash va doimiy takomillashtirish, xususan:

Sifat sohasida – ilg‘or texnologiyalardan foydalangan holda zarur nomenklatura va hajmlarda iste’molchilarining so‘rovlariga, shuningdek amaldagi qonunchilik va normativ-huquqiy talablarga javob berадиган sifatlari mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minalash;

Sog‘liqni saqlash va mehnat muhofazasini ta’minalash sohasida – kombinat xodimlarining sog‘lig‘i va hayotini saqlab qolish, ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar xavfini minimallashtirish, favqulodda va avariya vaziyatlarni bartaraf etish, kasb kasalliklari paydo bo‘lishining oldini olish hamda kombinat xodimlari va kontragentlarini himoya qilishni ta’minalash uchun xavfsiz mehnat sharoitlari va jarayonlarini yaratish;

Energiya samaradorligi va energiyani tejash sohasida – ishlab chiqarish jarayonlari va uskunalarining energiya samaradorligini oshirish hisobiga ularning energiya sarfini kamaytirish va xodimlarni energiya tejash jarayoniga jalb qilish orqali iste’mol qilish xarajatlarini kamaytirish bilan energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish;

Atrof muhitni muhofaza qilish sohasida – ekologik (tabiat muhofazasi) qonun hujjalari talablariga rioya etish, atrof-muhitga salbiy ta’sirni oldini olish va kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minalash maqsadida ekologik xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish.

“O‘zmetkombinat” AJning IMT sohasidagi faoliyati quyidagi vazifalarga asoslanadi:

- “O’zmetkombinat” AJ ishlab chiqarish samaradorligini va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish;
- manfaatdor tomonlar bilan sheriklik va ishonchga asoslangan o’zaro manfaatli uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirish;
- mijozlar talabini qondirish darajasini doimiy ravishda oshirish, ularning talablarini bajarish va ularning bashoratini oldindan bilish;
- mahsulotning ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish, sifatini ta’minalash va tannarxini pasaytirish;
- ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bo‘yicha puxta o‘ylangan texnik siyosatni amalga oshirish;
- mahsulotlarni mahalliylashtirish dasturi doirasida tovarlar va xizmatlar importini qisqartirish va metallurgiya mahsulotlari, butlovchi buyumlar va materiallarning yangi turlarini o‘zlashtirish;
- fan va texnika yutuqlarini hisobga olgan holda mehnat sharoitlari, ishlab chiqarish jarayonlari va infratuzilmasining sanoat xavfsizligi sohasidagi zamonaviy talablarga muvofiqligini, sanoat xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilishni samarali nazorat qilish tizimini yaratishni, ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar va kasb kasalliklari paydo bo‘lishining oldini olishni ta’minalash;
- mehnat madaniyatini oshirish va xodimlarning ijtimoiy himoyasini ta’minalash;
- energiya resurslaridan oqilona foydalangan holda energiya tejaydigan texnologiyalar va uskunalarini joriy etish.

Maqsadlarga erishish va muammolarni hal etish uchun “O’zmetkombinat” AJ rahbariyati o‘z faoliyatida quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

- IMT sohasidagi amaldagi qonunchilik, mahalliy normativ hujjatlar va sanoat qoidalarining amaldagi talablariga rioya qilish;
- jarayonlar va uskunalarining energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlanmalar va loyihalarni joriy etish;
- xarid qilish jarayonlarida sifat, energiya samaradorligi va atrof-muhit muhofazasi hamda ishchilar salomatligi talablariga javob beradigan mahsulotlar va xizmatlarga ustuvor ahamiyat berish;
- xodimlarning malakasini doimiy ravishda oshirib borish va tanlangan yo‘nalishlar bo‘yicha kompetensiyani rivojlantirishga ko‘maklashish;
- IMT sohasida samarali boshqaruvning ahamiyati va IMT talablariga muvofiqligi to‘g‘risida tushuncha tarqalishini ta’minalash;
- IMT faoliyatini doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlash va takomillashtirish;
- IMTning samarali ishlashiga hissa qo‘sadigan shaxslarni jalb qilishni, rag‘batlantirishni va qo‘llab-quvvatlashni ta’minalash;
- kombinat xodimlari va pudrat tashkilotlari xodimlaridan IMT sohasidagi qonunchilik va boshqa talablarning bajarilishini talab qilish;
- ishchilarning hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazish xavfini minimallashtirish choralarini ko‘rish va ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar va sog‘lig‘ining yomonlashuvining oldini olish uchun sharoit yaratish;
- xodimlar bilan konsultatsiyalar o‘tkazilishini, ularning barcha tegishli darajalarda va barcha funksional tuzilmalarda ishtirok etishini va ular mavjud bo‘lgan joylarda ularning vakillarini ishlab chiqish, rejalashtirish, ishlashini ta’minalash, ishslash ko‘rsatkichlarini baholash va IMTni takomillashtirish bo‘yicha harakatlarni ta’minalash, mehnat jamoasini qo‘llab-quvvatlash;
- ushbu Siyosatni amalga oshirish, uni yangilab turish va IMTning samarali ishlashi uchun zarur resurslar va ma’lumotlarning mavjudligini ta’minalash.

Ushbu Siyosat kombinatning tarkibiy bo‘linmalari va xizmatlari uchun boshqaruvning barcha darajalarida sifat, energiya samaradorligi, sanoat xavfsizligi va salomatlikni, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi maqsad va vazifalarni belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

“O’zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati jamoasi mahsulot sifatini kafolatlaydigan munosib hamkordir!

KELISHILDI

“O’zmetkombinat” AJ
Kasaba uyishmasi qo‘mitasi
boshlig‘i

E.Valiullaeva
2025-yil. “___” _____